

LISONIY PARADIGMA VA UNING TURLARI

Kurbanova Muhabbat Matyakubovna

Filologiya fanlari doktori,

O'zMU o'zbek tilshunosligi kaferasi mudiri, professor.

Sayfullayeva Malika Sirojiddin qizi

O'zMU Jurnalistika va filologiyasi

fakulteti 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada lisoniy paradigma tushunchasi, uning nazariy asoslari hamda asosiy turlari tahlil qilinadi. Paradigma til tizimining muhim elementi sifatida birliklar o'rtasidagi paradigmatic munosabatlarni ifodalaydi va nutq jarayonida muqobil birliklar orasidan tanlov qilish imkonini beradi. Maqolada Ferdinand de Sossyur tomonidan ilgari surilgan paradigmatic munosabat nazariyasiga tayangan holda, paradigma a'zolarining umumiy va farqlovchi xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, paradigma turlari— fonetik, morfologik, leksik va sintaktik paradigmalar misollar asosida izohlanadi.

Kalit so'zlar: til tizimi; semiologik sistema; lisoniy paradigma; paradigmatic munosabat; fonetik, morfologik, leksik va sintaktik paradigma; unlilar va undoshlar tizimi.

Abstract: This article analyzes the concept of the linguistic paradigm, its theoretical foundations, and its many types. The paradigm, as an important element of the language system, expresses paradigmatic relations between linguistic units and provides the possibility of selecting one unit among alternatives in the process of speech. The study is based on the theory of paradigmatic relations proposed by Ferdinand de Saussure, and it highlights the general and distinctive features of paradigm members. In addition, the types of paradigms-phonetic, morphological, lexical, and syntactic-are explained with relevant examples.

Keywords: language system; semiotic system; linguistic paradigm; paradigmatic relations; phonetic, morphological, lexical, and syntactic paradigms; vowel and case system.

Til o'ziga xos semiologik sistema (ishoralar sistemasi) bo'lib, jamiyat da asosiy va eng muhim fikr almashish quroli, jamiyat tafakkurining rivojlanishini ta'minlovchi, avlodlardan—avlodga madaniy-tarixiy an'analami yetkazuvchi vosita xizmatini o'taydi. [1;5-7].

Shunday qilib, bir-birini taqozo etuvchi ikki va undan ortiq unsurlarning o'zaro shartlangan munosabatidan tashkil topgan butunlik sistema sanaladi. [2,6].

Tilning fikrlarni ifodalashi, his-tuyg'ularni bildirishi, fikr ifodalaydigan eng kichik birlik bo'lgan gapning so'zlardan tashkil topishi, bu so'zlarning asosiy materiali tovush ekanligi, so'zlarning ham, tovush hodisalarining ham, so'z shakllarining (formalarining) ham, so'zlarni biriktirib, so'z birikmasi va gap hosil qilishning ham o'z ma'lum qoidalari borligi bizga ma'lum. Ana shu sanab o'tilgan holatlarning barchasi tilda mundarija, shakl (forma) va funksiyaning o'zaro bog'liqligini, tildagi qonun-qoidalarining shu uch tomonga asoslanganligini ko'rsatadi. Demak, fonetik, leksik va grammatik sistemalarning aloqasini — tilning qismlari bir-biri bilan bog'langan yaxlit, bir butun hodisa — sistema ekanligini ko'rsatadi. [5; 8].

Lisoniy birliklar bir-birini eslatib turish xossasiga ega. Shu boisdan ular jamiyat a'zolari ongida bir tizimga birlashgan hoda yashaydi. Masalan, [a] fonemasini, [u] fonemasi [o'] fonemasini, [i] fonemasi [e] fonemasini eslatadi. Lekin [a] fonemasi [q] yoki [h] fonemasini eslatmaydi. Chunki ular ikki tizim — unli va undosh tizimiga kiradi. Unlilar bir-birini unlilar tizimida, undoshlar bir-birini undoshlar tizimida eslata oladi. Hatto [u] fonemasining ani eslatishi

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

o‘z tizimdoshi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Masalan, [a], [o] fonemalari kichik, ichki tizim hozil qilib, birgalikda qolgan fonema juftliklarini eslatadi.

Eslatish ikki tomonlama bo‘lishi ham mumkin. Masalan, *yuz* leksemasi, bir tomondan *bet*, *chehra*, *jamol*, *oraz* kabi birliklarni, ikkinchi tomondan, *burun*, *ko‘z*, *quloq*, *qosh*, *lab* kabi birliklarini eslatadi va bunda u ikki tizimning a‘zosi hisoblanadi.[3;45].

Bir-birini eslatuvchi birliklar umumiy, o‘xshash belgi-xususiyatga ega bo‘ladi. Ana shu o‘xshashlik va umumiylik ularni birlashtiruvchi, bir tizimda ushlab turuvchi belgilari sanaladi. Masalan, unlilar <<sof ovozga egalik>> umumiy belgisi ostida birlashadi. Ammo ular farqli belgiga ham ega bo‘lishi shart. Masalan, [a] <<lablanmaganlik>>, [o] <<lablanganlik>> farqlovchi belgisiga ega, <<kenglik>> belgisi esa ularni birlashtiradi.

Umumiy belgisi asosida birlashgan va bir-birini taqozo etadigan, ammo har biri o‘ziga xos belgisi bilan boshqasiga qarama-qarshi turuvchi lisoniy birliklar tizimi *paradigma* deyiladi (*paradigma* grekcha *paradeigma* — *misol*, *namuna* degan ma‘noni bildiradi). Paradigmani tashkil etuvchi birlik *paradigma a‘zosi* deb yuritiladi. Paradigmada kamida ikki va undan ortiq a‘zo bo‘lib, ular, asosan, bir lisoniy sathga mansub bo‘ladi. Bir paradigma a‘zolari orasidagi o‘zaro munosabat *paradigmatik munosabat* deyiladi.

F.de Sossyur lisoniy mikrosistema va, umuman, lisoniy birlik orasidagi paradigmatik (assotsiativ, bir-birini eslatib turish, o‘xshashlik) munosabatini lisoniy birlik uchun eng asosiy munosabat sifatida baholagan.

Bir paradigma tarkibiga kiradigan birliklar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

- 1) paradigmadagi bitta birlik eslanganda, shu paradigmaga kiruvchi boshqa a‘zo ham xotirlanishi (esga olinishi);
- 2) muayyan nutq sharoiti uchun o‘zaro paradigmatik munosabatda turgan birlikdan, ya‘ni paradigma a‘zolaridan bittasi tanlanishi;
- 3) bir paradigmaning a‘zolari o‘zaro o‘xshashlik bilan birga, har bir a‘zo ikkinchisidan qaysidir bir xususiy belgisi bilan farqlanib turishi;
- 4) paradigma a‘zolari nutqda bir pozitsiyada (mavqeda) kelib, bir-birini ma‘lum holatda almashtira olishi, o‘rnini egallashi.[3;46]

Lisoniy paradigma va uning a‘zolariga nisbatan F.de Sossyur tomonidan qo‘yilgan bu talab qariyb yuz yildan beri deyarli o‘zgarishsiz saqlanib kelmoqda.

Paradigmatik munosabat atamasining muqobillari sifatida o‘xshashlik munosabati, assotsiativ munosabat atamalari ham ishlatiladi. Tizim so‘zi ham ko‘p hollarda paradigma atamasi o‘rnida ishlatiladi: unlilar tizimi, kelishik tizimi kabi. Jarangli va jarangsizlar alohida kichik yoki ichki paradigma bo‘lib, undoshlar tizimi bir butun holda ularga nisbatan katta yoki tashqi paradigma deyiladi.

Lisoniy birliklar tizimining qaysi lisoniy shaklga mansubligiga ko‘ra, *fonetik*, *leksik*, *morfologik*, *sintaktik paradigma* farqlanadi. [3;47].

Lisoniy paradigma va uning turli ko‘rinishlari til tizimida qanday namoyon bo‘lishini aniqlash maqsadida quyidagi tegishli misollar tahlil qilinadi. Birinchidan, fonetik paradigma tilning tovush tizimi bilan bog‘liq bo‘lib, unda tovushlar o‘zaro o‘xshashlik va farqlanish asosida guruhlanadi. Masalan, /b/, /p/, /d/, /t/ undoshlari bir paradigmaga kiradi. Ularning barchasi undosh tovushlar hisoblanadi, biroq /b/ va /d/ jarangli, /p/ va /t/ esa jarangsiz tovushlardir. Bu birliklar nutqda bir pozitsiyada kelib, ma‘no farqlash vazifasini bajaradi: “bol” – “pol” misolida bir tovushning almashishi natijasida so‘z ma‘nosi o‘zgaradi.

Ikkinchidan, morfologik paradigma so‘z shakllari tizimini ifodalaydi. Masalan, “shahar” so‘zini olaylik. Uning kelishik shakllari quyidagicha: shahar (bosh kelishik), shaharni (tushum kelishigi), shaharga (jo‘nalish kelishigi), shaharda (o‘rin-payt kelishigi), shahardan (chiqish kelishigi).

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Ushbu shakllar bir paradigmaga kiradi va nutqda bir xil pozitsiyada qo‘llanib, muayyan vaziyatga qarab ulardan bittasi tanlanadi: “Men shaharni ko‘rdim”, “Men shaharga bordim” kabi.

Darhaqiqat, kelishiklar tizimi misolida shaxs-son paradigmasi morfologik paradigmanning muhim ko‘rinishi hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, bu paradigma til birliklari o‘rtasidagi paradigmatic munosabatni aniq ko‘rsatadi va nutq jarayonida tanlov imkonini beradi.

Shaxs-son paradigmasining a‘zolari quyidagicha ajratiladi:

Birlik va ko‘plik:

1-shaxs: men, biz

2-shaxs: sen, siz

3-shaxs: u, ular

Paradigmaga kiruvchi birliklar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir-birini eslash orqali boshqa a‘zolar ham ongda esga olinadi. Masalan, “men” eslatadi “biz”, “u” esa “ular”ni eslatadi. Nutq jarayonida esa aynan bir shaxs va son shakli tanlanadi, bu esa tilning variativligini ta‘minlaydi.

Bizningcha, bu paradigma turini aniq ifodalash uchun turli fe‘llar bilan misollar keltirish mumkin:

Fe‘l bormoq:

Men uyga bordim (1-shaxs, birlik)

Biz uyga bordik (1-shaxs, ko‘plik)

Sen uyga bording (2-shaxs, birlik)

Siz uyga bordingiz (2-shaxs, ko‘plik)

U uyga bordi (3-shaxs, birlik)

Ular uyga bordilar (3-shaxs, ko‘plik)

Fe‘l „tozalamoq“:

Men uyni tozaladim (1-shaxs, birlik)

Biz uyni tozaladik (1-shaxs, ko‘plik)

Sen uyni tozalading (2-shaxs, birlik)

Siz uyni tozaladingiz (2-shaxs, ko‘plik)

U uyni tozaladi (3-shaxs, birlik)

Ular uyni tozaladilar (3-shaxs, ko‘plik)

Shaxs-son paradigmasi fe‘llarning barcha shakllarida grammatik va semantik farqni yuzaga chiqaradi. Shu bilan birga, u nutqdagi tanlov imkoniyatini yaratib, til birliklarini tizimli ravishda bog‘laydi.

Uchinchidan, leksik paradigma ma‘nodosh so‘zlar tizimini qamrab oladi. Masalan, “chiroyli”, “go‘zal”, “husnli” so‘zlari o‘zaro yaqin ma‘noga ega bo‘lib, bir paradigmaga mansubdir. Biroq

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

ular uslubiy yoki emotsional bo‘yoqdorlik jihatidan farqlanadi va nutq jarayonida ulardan biri tanlanadi.

To‘rtinchidan, sintaktik paradigma gap tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lib, turli sintaktik modellarning o‘zaro munosabatini ifodalaydi. Masalan, “Men xabar o‘qidim” va “Men xabarni o‘qidim” gaplari mazmun jihatidan yaqin, biroq grammatik jihatdan farqlanadi. Shuningdek, “U maktabga bordi” va “U maktab tomon yo‘l oldi” gaplari ham bir-biriga yaqin ma‘noni ifodalaydi. Bu holatda nutq jarayonida mavjud sintaktik variantlardan bittasi tanlanadi.

Shunday qilib, lisoniy paradigmatlar til tizimining barcha darajalarida — fonetik, morfologik, leksik va sintaktik bosqichlarda namoyon bo‘lib, birliklar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlanish asosida shakllanadi hamda nutq jarayonida tanlov imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Paradigmatik munosabat til tizimining ichki tashkil topish mexanizmini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib, u til birliklarining o‘zaro o‘xshashlik va oppozitsiya asosida birlashishini ifodalaydi. Mazkur munosabat orqali til birliklari ongda tizimlashgan holda mavjud bo‘ladi va nutq jarayonida muayyan kommunikativ vazifani bajarish uchun ular orasidan zarur elementi tanlab olinadi. Paradigma hodisasi tilning barcha sathlarida — fonologik, leksik va grammatik darajalarda izchil namoyon bo‘lib, har bir sathda birliklarning ichki tizimli munosabatini yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, paradigmatik qarama-qarshiliklar (oppozitsiyalar) til birliklarining funksional farqlanishini ta‘minlab, ularning semantik va struktur xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, paradigmatik munosabatlar til birliklarining faqat o‘xshashlik asosida emas, balki farqlovchi belgilar orqali ham tizimlashishini ko‘rsatadi. Bu esa tilni oddiy yig‘indi emas, balki qat‘iy ichki qonuniyatlarga ega bo‘lgan murakkab tizim sifatida talqin etish imkonini beradi. Paradigma doirasida yuzaga keladigan tanlash munosabati nutqning variativligini ta‘minlab, til egasiga fikrni turlicha ifodalash imkoniyatini yaratadi. [4].

Xulosa qilib aytganda, paradigmatik munosabat tilning tizimliliigi, barqarorligi va funksionalligini ta‘minlovchi muhim nazariy asos bo‘lib, u til birliklarining o‘zaro aloqadorligini, farqlanishini va nutqdagi real qo‘llanish mexanizmini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev I. Tilshunoslik asoslari. Toshkent, 2007. — 189 b.
2. А.НУРМОҲОВ, Б. ЙЎЛДОШЕВ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАБИИЙ ФАҲЛАР — ТОШКЕНТ, 2001. — 154 б.
3. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.[Matn]: darslik / R.R.Sayfullayeva, [va boshq.]. — Toshkent: <<Tafakkur avlodi>>2023. — 544 b.
4. Jakobson R. Lingvistik asarlaridan. — Moskva, 1985. — 460 b
5. Yo‘ldoshev I. Tilshunoslik asoslari. Toshkent, 2007. — 189 b
6. Ziyonet axborot-ta‘lim portali. — www.ziyonet.uz
7. https://www.journals.uz/wp-content/uploads/2020/05/conf_apre_1_2020/Filologiya-1.pdf
- https://www.journals.uz/wp-content/uploads/2020/05/conf_aprel_2020/Filologiya-1.pdf